



**TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA
INNOVATSION YONDASHUVLAR**

*Abdullajonova Dildora Rustamjonovna
Andijon davlat pedagogika
institutining "Maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrası dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD).*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15228232>

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish orqali ularning kelajakda zamon talablariga javob beradigan pedagog kadrlar bo'lishini ta'minlash maqsadida olib borilayotgan islohotlar hamda o'quv jarayonidagi tub o'zgarishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: klaster, ideal, glaballashuv, fiziologiya, psixologiya, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Keyingi yillarda jamiyatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar, islohotlar, shubhasiz, jahon hamjamiyatida kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari bilan bog'liq ravishda kechmoqda. Globallashuv, ta'bir joiz bo'lsa, bugungi kunda mamlakatlarni rivojlantirishning mohiyati va mazmuniga, strategiyasi hamda tamoyillariga, yondashuv va uslublariga birday ta'sirini o'tkazayotgan jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy pedagogikamiz yaqin yillargacha o'quvchilarga insoniyat tomonidan shu paytga qadar egallangan mavjud bilimlarni o'rgatishni eng maqbul yo'l sifatida qarab keldi. Ta'lim uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, ta'lim turlari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, integratsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirishga nisbatan yangicha mexanizmlarni joriy etishni taqozo qilmoqda. Hamkorlikning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Bizningcha, ayni shu jihat pedagogik oliy ta'lim muassasalarining strategik ilmiy tadqiqot yo'nalishi sifatida belgilanishi lozim. Individual ta'lim ijtimoiy yo'naltirilgan ta'limning tarkibiy qismi bo'lib, shaxsga yo'naltirilgan texnologik omillarga muvofiq tashkil etiladigan, maqsad va mazmun uyg'unligini ta'minlaydigan pedagogik yondashuv kombinatsiyasi muvofiqligini yuzaga chiqaradi. Individual yondashuv ta'lim oluvchini har jihatdan o'rganish va unga pedagogik ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydigan omildir. U ta'lim oluvchiga o'zini anglash, individual yo'nalganligini aniqlashtirish, yetakchi o'quv faoliyatini motivlashtirish, o'z imkoniyatlarini baholash, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyati bilan bog'liq zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda ta'lim, fan va ishlab chiqarish bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro yakdillikning yetishmasligi bugungi kunda uzluksiz konsentrlashtirilgan ta'lim rivojlanish modeliga o'tkazish zaruriyatini taqozo etmoqda. Konsentrlashtirilgan ta'lim innovatsion klasteri muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida ta'lim subyektlarining, texnologiyalarning va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm bo'lib, u innovatsiya va integratsiya jarayonlari bilan bog'liq.

A.A.Verblskiy, V.A.Tokyarevalar oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish talabalar uchun juda qiyin kechadi, chunki, bu davrda shaxsning murakkab fazilatlarini, xislatlarini, sifatlarini takomillashish bosqichida bo'ladi. Mazkur yosh davrdagi ijtimoiy psixologik o'sishning xususiyatlaridan biri o'qish faoliyatining ongli motivlari kuchayishidir. Talabalarda axloqiy jarayonlarning o'sishi sust amalga oshsa-da, lekin xulqining eng muhim sifatlarini-mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va hakovolar takomillashib boradi. Shuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish tobora kuchayadi.



Oliy ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish orqali ularning kelajakda zamon talablariga javob beradigan pedagog kadrlar bo'lishini ta'minlash maqsadida "Kelajak o'qituvchi konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Unda kelajak o'qituvchilarini tayyorlashga oid yaxlit ta'lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralib, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor berilgan. Zamonaviy talablarga javob beradigan, hayotiy va kasbiy kompetensiyalarga ega, kreativ hamda nostandart fikrlash ko'nikmalarini o'zlashtirgan, dars mashg'ulotiga ijobiy munosabatda yondashuvchi, sohaga doir ilg'or xorijiy tajribalar bilan tanish tanish bo'lgan, real sharoit va vaziyatlarga tezlik bilan professional moslasha oladigan o'qituvchi shaxsini tarbiyalash konsepsiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Mamlakatimiz psixologlarining tadqiqotlari shaxs hayot tajribasini egallashda unda o'zligini anglash vujudga kelishini ko'rsatadi. Shaxsning o'z hayot mazmunini anglashi, aniq kundalik turmush rejalarini tuzishi, kelajak hayot yo'lini belgilash shular jumlasidandir. Talaba o'zining o'quv faoliyati davomida mikroguruhlarining notanish sharoitlariga ko'nikib boradi, o'zining haq-huquqlari va majburiyatlarini bilan boshlaydi, shaxslararo munosabatlarining yangicha ko'rinishini o'rnatadi, turmushdagi ijtimoiy rollarni amalda shaxsan sinab ko'rishga intiladi. Ulardagi romantik his-tuyg'ular voqelikka muayyan yondashishga birmuncha halaqit beradi. Chunki ular turmushdagi yutuqlar va muvaffaqiyatlarning ijtimoiy psixologik ildizlari nimadan ekanligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmaydilar. Yosh fiziologiyasi va psixologiyasi fanlarida to'plangan materiallar taxlilidan ko'rinadiki, talaba 17-19 yoshda ham o'z xulqi va bilim qobiliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va shunga ko'ra xulq motivlarining asoslanmagani, uzoqni ko'ra olmaslik, ehtiyojsizlik kabi hollar ro'y beradi. Talabalik yillarda yoshlarning hayoti va faoliyatida o'zini o'zi kamolotga yetkazish jarayoni muhim rol o'ynaydi, lekin o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari(o'zini o'zi tahlil qilish, nazorat etish, baholash, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ideal(yuksak, barqaror, barkamol) "Men"ni real (aniq voqea) "Men" bilan taqqoslash orqali o'zini o'zi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo'ladi. Talabaning nuqtai nazaricha, ideal "Men" ham muayyan mezon asosida yetarli darajada tekshirib ko'rilmagan, shuning uchun ular gaho tasodifiy, g'ayritabiiy his etishini muqarrar, real "Men" ham shaxsining takomillashuvida bunday obyektiv qarama-qarshiliklar o'z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni, o'qishga nisbatan salbiy munosabatni vujudga keltiradi. O'quv yili boshida talabada ko'tarinki kayfiyat, oliy o'quv yurtiga kirganidan zavq-shavq tuyg'usi kuzatilsa, ta'limning shart-sharoiti, mazmuni, mohiyati, kun tartibi, muayyan qonun va qoidalar bilan yaqindan tanishish natijasida uning ruhiyatida keskin tushkunlik ro'y beradi. Yuqorida aytilgan ichki va tashqi vositalar, omillar ta'sir oqibatida uning ruhiy dunyosida umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, ya'ni istiqbolga ishonchsizlik, ikkinchisi hadiksirash kabi salbiy his tuyg'ular namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yigit va qizlar oliy o'quv yurtiga qabul qilish ularda o'z kuchlari, qobiliyatlari, aql zakovatlari, ichki imkoniyatlari va irodalariga qat'iy ishonch bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.18.01.2021 yildagi 23-son.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.06.2022 yildagi 312-son. Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.

3.Davletshin M.G. Jalilova S.X. "Oliy maktabda ta'lim jarayonini samaradorligining psixologik tomonlari".-T.,2001.-10b.

4.Davletshin M.G. "Yosh davrlar va pedagogik psixologiya" T.TDPU.2009.

5.Nishonova Z.T.,Ergasheva P.S. "Oliy maktab psixologiyasi".-T.,2012.-67b.